

BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ

Nazarova Lolaxon Mamajo'rayevna*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani MMTBga qarashli
24-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Bolalarning o'zi himoyalanganmagan, zaif ijtimoiy qatlam bo'lishlariga qaramay, ko'p hollarda tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar hududida qolib ketadilar, jismoniy, emotsional va jinsiy zo'rlanish qurboniga aylanadilar. BMTning bergan ma'lumotlariga ko'ra har yilda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning 2 mln.ga yaqini ota onalar zo'ravonligidan qiynaladilar. Ularning har o'ntadan biri hayotdan ko'z yumadi, ikki mingtasi esa hayotni o'z joniga qasd qilish bilan yakunlaydi.

Zo'ravonlik bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha klassifikatsiyalanadi:

- ochiq va yopiq (kimdir oshkor qiladi, kimdir yashiradi);
- hozirda ham davom etayotgan yoki o'tmishda sodir bo'lgan;
- birlik yoki ko'plikda, uzoq yillar davom etuvchi;
- sodir etilayotgan joy va muhitga ko'ra zo'ravonlik: uyda qarindoshlar tarafidan, maktabda pedagog yoki bolalar tomonidan, ko'chada bolalar yoki notanish kattalar tarafidan bo'lishi mumkin.

Asanova ishlarida taklif etilgan quyidagi zo'rlik klassifikatsiyasi keng tarqalgan: Jismoniy zo'ravonlik 18 yoshgacha bshlgan bolalarga nisbatan ko'rsatilgan tasodifiy bo'lmagan jarohatning har qaysisi. Jismoniy zo'ravonlik yuzga urish, itarish, bo'g'ish, yumdalash, kamar yoki arqon bilan kaltaklash, og'ir predmetlar va pichoqlar bilan jarohatlar yetkazish shaklida namoyon bo'ladi. Jismoniy zo'ravonlik o'z ichiga bolalarni narkotik, alkogol moddalariga jalb qilishni, zaharlovchi yoki hushsizlantiruvchi tibbiy preparatlar (masalan, vrach tomonidan yozib berilmagan uyqu chaqiruvchilarni, shuningdek cho'ktirishga urinishlarni ham qamrab oladi. Jinsiy zo'ravonlik bolalar (qiz yoki o'g'illarni) kattalar yoki boshqa bolalar tomonidan o'zining jinsiy ehtiyojlarini qondirish, manfaat olish maqsadida ulardan foydalanishidir. Jinsiy zo'ravonlik o'z ichiga har qanday jinsiy aloqani, jinsiy organlarning tana kontaktini, bolalarni fohishabozlikka, pornobiznesga jalb qilishni, bolaning oldida jinsiy organlarni yalang'och holda ko'rsatish va unga sezdirmasdan yechinayotganida kuzatish kabi hollarni qamrab oladi. Bolaning zarurat va qiziqishlariga e'tiborsizlik ota onalar yoki ayrim sabablarga ko'ra ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolaning ovqatga, qiyinishga, uy joyga, ta'lim olishga, tibbiy yordamga bo'lgan majburiy ta'minlanishi kerak bo'lgan zarurat va ehtiyojlarini ta'minlamaslik. Bolani baxtsiz hodisalarga olib keluvchi qarovsiz qoldirishlar yuqoridagilarga misol bo'la oladi.



Psixologik zo‘ravonlik doimiy yoki vaqti vaqti bilan bolani haqoratlash, o‘qituvchi, tarbiyachilar, ota-onalar tarafidan ko‘rsatiladigan qo‘rqituvlar; uning insoniylik g‘ururini kamsitish, ularni u qilmagan ishda ayblash, bolaga muhabbatning yo‘qligini, unga adovatni namoyish etish. Shuningdek, bu zo‘ravonlik turiga doimiy yolg‘on va bolaga qo‘yilayotgan talablar uning yoshiga mos emasligi ham kiradi.

Emotsional zo‘ravonlik. Ayrim tadqiqotchilar har qanday zo‘ravonlik asosida emotsional zo‘ravonlik, xo‘rlanganlik yotadi degan fikrdalar. Odatda jabrlanuvchi bola bir vaqtning o‘zida zo‘ravonlikning bir qancha turini boshdan o‘tkazadi. Masalan, zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan kattalar va bolalar ko‘pincha jismoniy (kaltaklash) va emotsional (o‘ldirish yoki mayib qilish qo‘rqituvlari) zo‘rlashni boshdan kechiradilar. Bolalar ustidan zo‘ravonlik va e‘tiborsizliklar bo‘lishiga ijtimoiy, hamda madaniy sharoitlar ham olib keladi: jamiyat ongida aniq jismoniy jazo bahosini yo‘qligi, OAVda zo‘ravonlikni namoyish etilishi. Tadqiqotlar ota onalarda norozilikni, asabiylashishni va bulardan keyin zo‘rlashni keltirib chiqaruvchi bolalarda mavjud bir qator xususiyatlarni aniqladilar.

Zo‘rlilik qurboni bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan bolalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- istalmagan bolalar, shuningdek, ota onasi undan oldingi bolani yo‘qotgandan keyin tug‘ilgan bolalar;
- boshqalardan tashqi qiyofasi bilan ajralib turuvchi yoki ota-onalariga ma‘qul bo‘lmagan xususiyatli bolalar (masalan, bolaning boshqa jinsda ekanligi);

O'smirlik yoshiga kelib bu xolat ularda jinsiy qiziqishlarning sekinlashuviga olib keladi.

A) xafagarchilikka asos bo'lmagan narsalarga xam kulgi bo'ldim deb qarashi, o'z g'ururini o'zgalar oldida toptalishi, o'zini "erga" urilgan deb qarashi va undan uyalishi, o'zgalar tomonidan o'zini xo'rlangandek xis qilishi.

B) xali uni tanqid qilmasliklaridan oldin, yaxshisi ular bilan umunosabat o'rnatmaslik

V) xo'rlanishdan qo'rqishi tufayli hammadan o'zini chetga tortishi G) aslida o'zgalar tomonidan qabul qilinishini o'ylash.

D) o'z xatolaridan qayg'urishi va muvaffaqiyatlarni kamsitish, o'zini o'zi past baholashidan azoblanishi va boshqa begonalar bilan kechadigan har qanday aloqadan qiynaladi atrofda ularni "ortiqcha" deb o'ylaydi va o'smirlik davriga xos bo'lgan giperkompeno'iatsiya reaksiyasi ularda uchraydi.

Ye) ota – ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga ichkilikka berilishini

Yo) oila a'zolari ichida sudlangan odamning uchrashi.

J) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatishi va hakoza.

Z) madniy – ma'rifiy ishlab chiqarishi va jamoatchilikni kamchiliklari.

O'smirlik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib bu davrda tananing intensiv tarzdagi rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomir xarakterlarida ham notekislik ro'y beradi va u bolani fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, bular albatta asab tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bola tezda achchiqlanadigan yosh tormozlanishi yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqmaydigan tushkunlikda ham qolishi mumkin.

Bolalar agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1.Nosog'lom oila muhiti. Bu kabi oilalarda ota-onalar bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv hulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga bog'liq hisoblanadi.

2.Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o'zlarini agressiv boshqarishga urinadilar.

3.Ommaviy axborot vositasi. Bugungi kunda bolalarga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internetning ta'siri kuchayib bormoqda.

Bolalar internet aloqalari orqali o'zlarining xususiyatlariga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari fil'mlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishga ta'sir qilmoqda. Psixologik kuzatuvlarga ko'ra, oiladagi iqlim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabat, ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabat, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillari, aka-ukalari bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomonidan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning ta'sirlanishi – oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini belgilab beruvchi omillar bo'lib hisoblanmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. **Karimova L.** (2006). *Psixologiya va hayot*. – Toshkent: O'zbekiston, 285 b.
2. **Baxromova N.** (2019). *Maktab va oilada bolalar xavfsizligini ta'minlash asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi.
3. **UNICEF (2020)**. *Violence against children: Global status report*.
4. **WHO (2022)**. *World Report on Violence and Health*.
5. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-3855-son** (2018). *Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi*.
6. **G'aniyeva N., Jo'rayev Sh.** (2021). *Oila va maktab hamkorligida zo'ravonlikning oldini olish*. – Toshkent: Fan va texnologiya.